

**DEVPECHAK (CUSCUTA JAPONICA CHOISY) NING
DORIVORLIK XUSUSIYATLARI.****Aminova Malika Murotboy qizi ¹**¹ Urganch davlat pedagogika instituti

“Maktabgacha ta’lim va tabiiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

+99895-772-10-59

**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:**

Received:09.06.2025

Revised: 10.06.2025

Accepted:11.06.2025

KALIT SO‘ZLAR:

devpechak, parazit
o‘simlik, infeksiya,
xo‘jayin o‘simlik,
gaustoriya.

Bugungi kunda dunyo bo‘ylab parazit o‘simliklar boshqa turdagi o‘simliklar qoplamiga katta zarar keltirmoqda. Hozirgi vaqtda 19 oilaga mansub 4100 ga yaqin parazit o‘simliklar turi ma’lum. Parazit o‘simliklar bilan kurashish va ularni ziyonini kamaytirish hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu maqolaning maqsadi parazit o‘simliklardan biri bo‘lmish-devpechak (*Cuscuta japonica Choisy*) misolida talabalarga parazit o‘simliklar haqida ma’lumot berishga qaratilgan.

KIRISH. Devpechak (*Cuscuta* L.)-chirmovuqdoshlar (*Cuscutaceae*) oilasiga mansub bir va ko‘p yillik parazit o‘simlik hisoblanadi. U o‘tloqlarda, daryo vodiylarida, butalarda o‘sadi, butalar va ko‘p yillik o‘simliklarda parazitlik qiladi. Vatani-Amerika va Afrika bo‘lib, O‘rta Osiyoda 5 turi tarqalgan. Bularning har biri 150-200 gacha o‘simlik turini zararlab, hosilning ko‘p qismini nobud qiladi va sifatini pasaytiradi. Devpechak Osiyo qit’asining turli joylarida topilishi mumkin. O‘simlik 1940-yillardan boshlab dorivor o‘simlik niqobi ostida Amerika Qo‘shma Shtatlariga bir necha marta kiritilgan va bir necha marta yo‘q qilingan deb hisoblangan. Ildizi, bargi bo‘lmaganligi sababli plastidalar ham yo‘q. Poyasi 0,5-7,5 mm gacha yetadigan sarg‘ish yoki sarg‘ish-pushti, sershox, ancha qalin, etli, sim shaklida, tarvaqaylab ketgan, yalang‘och, silliq, ozmi-ko‘pmi qizg‘ish rangga ega. Guli oq va oqish-pushti, oval shaklda. Gulkosachasi qisqa halqali, pushti, kosadan ikki baravar yoki biroz uzunroq; oval yoki tuxum shaklida, uzunligi taxminan 4 mm, ko‘proq

yoki kamroq rangli, qalpoqsimon, serurug'li o'simlik. Urug'lar dumaloq yurak shaklida, uzunligi taxminan 2 mm va kengligi 2,5 mm g'adir-budur, usti qattiq po'st bilan qoplangan. Avgust oyida gullaydi, mevalar oktabrda pishadi. Devpechak asosan, urug'idan va qisman poyasidan ko'payadi. Uning urug'lari qattiqligi sababli unuvchanlik ko'rsatkichi pastroq bo'ladi. Tuproqda qishlab chiqqan urug'lari mart-aprel oylarida unib chiqqa boshlaydi. O'simtalari dastlab kuniga 2-3 sm, 10-kundan boshlab 12-15 sm dan o'sadi. O'simtalari biror o'simlikka chirmashib, urug'idan ajraladi, o'simlik tanasiga 2-4 marta spiral shaklida o'ralib oladi va so'rg'ichlari bilan o'simlik shirasini so'ra boshlaydi. Natijada o'simlikda modda almashinuvi jarayoni buziladi, hosili kamayadi, hatto qurib qoladi. Devpechak asosan, mevali, manzarali, o'rmon daraxtlari, tok, buta, rezavor, subtropik va sitrus o'simliklariga tushib, xalq xo'jaligiga katta zarar keltiradi. Devpechak boshqa o'simliklarda parazitlik qiluvchi o'simlikdir. Yengil rivojlanish muammolaridan tortib, ba'zida o'limga olib keladigan jiddiy asoratlarga, devpechak o'simlik xo'jayin o'simlikga keng ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, fermerlar bu o'simlikdan zarar ko'rishlari mumkin, chunki infeksiya ularning hosilini yig'ib olishga halaqit beradi. *Cuscuta japonica* tashqi ko'rinishi bo'yicha boshqa parazit o'simliklarga juda o'xshash bo'lib, uni farqlash qiyin. Devpechak (*Cuscuta Japonica* Choisy) Kaliforniya shtatida zararli begona o'tlar ro'yxatiga kiritilgan.

Tibbiyotda qo'llanilishi. Dorivor o'simlik sifatida uning urug'laridan foydalanish mumkin. O'simlik tarkibida fenol karboksilik kislotalar va ularning hosilalari, kumarin umbelliferon, flavonoid 3-glikozid mavjud. Xitoy tibbiyotida urug'larni tayyorlash moxovni, shu jumladan tuberkulyozni davolash uchun ishlatiladi. Koreys tibbiyotida tonik sifatida, diabet, uyqusizlik, nevrasteniya, isteriya, sistit, bosh aylanishi, uzoq muddatli diareya uchun ishlatiladi. Klinik tadqiqotlarda urug' damlamasi (murakkab retseptning bir qismi sifatida, asosiy tarkibiy qism devpechak urug'laridan) diabetni davolashda ijobiy baholanadi; tajribada u immunostimulyatsion ta'sirga ega, qondagi agglutininlar darajasini ko'paytiradi.

Kurash choralari: Devpechak tushgan daraxt novdalari qirqib yoqiladi, kuchli zararlanganlari tupi bilan kovlab yo'qotiladi. Bog', tokzor, ko'chatzor va daraxtzorlarda qator oralari haydab qo'yiladi, daraxtga tushgan devpechakni kimyoviy usulda yo'qotish chorasi hozircha ishlab chiqilmaganligi sababli qo'lda tozalanadi. Ekin maydonlari, yo'l yoqalaridagi o'simliklarga tushgan devpechakni yo'qotish uchun esa nitrafenning 4% li eritmasi bilan gektariga 1200 l normada dorilash kerak. *Cuscuta japonica* Choisy xo'jayin o'simlikning to'qimalariga gaustoriyalar bilan kirib, o'simliklarda parazitlik qiladi. Og'ir infektatsiyalar xo'jayin o'simliklarni o'ldirishi mumkin.

Xulosa. Devpechak asosan buta va daraxtlarda parazitlik qiluvchi o'simlik bo'lib, hozirgi davrda unga qarshi kurashish choralari ishlab chiqilmoqda. Parazit o'simlik bo'lishiga qaramasdan, urug'i tarkibidagi kimyoviy moddalar tibbiyotda turli xil kasalliklarni davolashda qo'llanilib kelinmoqda. Keyingi ilmiy izlanishlar natijasida parazit o'simliklarni yo'qotish vositasida turli xil kimyoviy vositalardan foydalanish ishlab chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Леусова Н.Ю., Крылов А.В. Покой семян повилики японской *Cuscuta japonica* Choisy// VII Дальневосточная молодежная школа-конф. по актуальным вопросам химии и биологии, 15-22 сент., 2003 г., Владивосток: тез. докл. – Владивосток: МЭС, ТИБОХ ДВО РАН. С. 32-33.

2. Леусова Н.Ю., Некрасов Э.В. Использование видов рода Повилика (*Cuscuta* L.) в медицине и биотехнологии // Бюллетень физиологии и патологии дыхания. – 2004. – Т. 19. – С. 87-93.

3. Леусова Н.Ю., Крылов А.В., Некрасов Э.В. Особенности покоя и прорастания семян *Cuscuta japonica* Choisy // Бюллетень ГБС. – 2007. – Т. 193. – С. 180-186

4. Леусова Н.Ю. Особенности экологии растений-паразитов на примере повилики японской (*Cuscuta japonica* Choisy) автореф. Дис. Канд. Биол. Наук. Благовещенск 2006. 23 с